

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH****Xaydarova Xumora Abduvaliyevna***Samarqand shahar 80-umumta‘lim maktabi 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Pedagogik texnologiya – bu ta‘lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog‘liqligini hisobga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli. Ta‘limni takomillashtirishda zamonaviy bilimlarga yo‘l ochish pedagogik texnologiyalardan umumli foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish uni yangi davlat ta‘lim standartlari asosida o‘rnatishga qaratilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchining faoliyati, uning pedagogik mahoratiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maqolada Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari, boshlang‘ich sinflarda foydalanish mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang‘ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida atroflicha ma‘lumot berilgan.*

Key words: *“innovatsiya”, o‘quv jarayoni, an‘anaviy ta‘lim, pedagogik texnologiya.*

Pedagogik texnologiya – bu ta‘lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog‘liqligini hisobga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli. Ta‘limni takomillashtirishda zamonaviy bilimlarga yo‘l ochish pedagogik texnologiyalardan umumli foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish uni yangi davlat ta‘lim standartlari asosida o‘rnatishga qaratilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchining faoliyati, uning pedagogik mahoratiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maqolada boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari, boshlang‘ich sinflarda foydalanish mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang‘ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida atroflicha ma‘lumot berilgan. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovatsion) “yangilik kiritish” degan ma‘noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya- muayyan tizimning ichki tuzilishi. Ta‘lim oluvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta‘lim.

Innovatsion ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta‘lim texnologiyalari yoki ta‘lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta‘lim innovatsiyalari - ta‘lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta‘lim innovatsiyalari “innovatsion ta‘lim” deb ham nomlanadi.

“Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo’llanilgan. Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo’llashga qiziqish toboro keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo’llash ta’lim samaradorligi vata’sirchanligini oshiradi, o’quvchilarning o’qish motivlarini o’stiradi. Innovatsiya- yangilik kiritish, yaratishdir. Demak, an’anaviy ta’limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir.

Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o’quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o’qituvchi o’zining ish shakllari va o’quvchilarning ko’nikmalarini egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o’qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko’proq interaktiv metodlarga e’tibor qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so’zi inglizcha- interaction, ya’ni inter-aro, o’zaro, asta harakat ma’nosini anglatadi.) Interaktiv usullar - bu o’zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o’qitish demakdir.

Interaktiv usullarning asosiy turlari

- *Kognitiv usullar*
- *O’yinlar, eksperimental faoliyat*
- *Ishbilarmonlik o’yinlari, modellashtirish*
- *Amaliyot orqali o’qitish, bevosita faoliyat*

Boshlang’ich sinflarda foydalanish mumkin bo’lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari Innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari:

1. Ilmiylik tamoyili - har qanday o’quv predmeti o’quv materiali fanning zamonaviy yutuqlarga tayanish lozimligini ko’rsatadi. Bu tamoyil o’quv dasturlari, o’quv qollanma, darsliklarini yaratishda amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga ko’ra har yili fanlarning ishchi o’quv rejalari va o’quv materiallarini takomillashtirish talab etiladi.

2. Loyihalash tamoyili - o’quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarni o’quv jarayoni grafigi, o’quv reja, fanning ishchi o’quv dasturi, fan bo’limlari o’quv maqsadlari toifalari, o’qitish jarayoni texnologiyasi egallangan bilim va malakalarni baholash mezonini yaratishni anglatadi.

3. Tizimlilik tamoyili - o’quv jarayonining barcha elementlari, ularning o’zaro bog’liqlik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanaadi.

4. Maqsadga yo’naltirilganlik tamoyili - har bir fanni o’qitish jarayoni ma’lum maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi lozim.

5. Boshqaruvchanlik tamoyili - o’quv jarayoni boshqariladigan taqdirda o’qitishning rejalashtirilgan natijasiga erishish mumkin.

6. Qayta takrorlanish tamoyili - zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, zaruriy miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan tayyorlangan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

7. Samaradorlik tamoyili - innovatsion texnologiyalarni o’qitishning ko’zlangan natijalariga maqbul hujjatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishni ko’rsatadi.

8. Ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili

9. Ta’limning uzliksizligi tamoyili

10. Faoliyat yondoshuvi tamoyili - ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi.

O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va ularga moyil bo'lishlariga va fe'l-atvorning xilma-xilligiga qaramay, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, xulosa chiqarishga o'rgatishi kerak. Bunda o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir, o'qish, o'qish, chizmalar chizish, proektsiyalarning formulalarini tushunish, bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lish, oldida turgan muammolarni hal qilishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasidir. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar nafaqat o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni beribgina qolmay, balki yoshlarimizni jamiyat, davlat, tabiatga munosabati bilan vatanparvarlik g'oyalari ongi va qalbiga singdirishni ta'minlaydi. o'ziga va boshqa odamlarga.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatdosh kadrlar tayyorlaydigan o'qituvchiga zamonaviy talablar to'plamini belgilaydi. O'zaro bog'liq talablar to'plami tarbiyachining umumlashtirilgan modelini tavsiflaydi va unga asoslanib quyidagi asosiy talablar: o'qitish mahorati, tarbiya mahorati. Ta'lim jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlar – o'qituvchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash va nazorat qilish qobiliyati.

Quyida shunday metodlardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz. Rang va shakllar boshqotirmasi. Bu metod o'zining ko'plab spetsifik xususiyatlari bilan boshqa metodlardan ajirilib turadi. Chunki bu metodda

boshlang'ich sinf o'quvchilar bir vaqtning ichida o'tilayotgan darsdan tashqari rasm darsini, geometrik shakllarni ham o'rganishi mumkin. Rang va shakllar boshqotirmasi metodi quyidagi shaklda tashkillashtiriladi:

- Elektron daskaga rang va shakllar boshqotirmasining tasviri tushiriladi.

Tasvirda vertikal holatdagi rangli shakllar joylashgan bo'ladi.

- 1 - aylana, 2 - uchburchak, 3 - to'rtburchak... va h.k. Shakllar mavzuni talabidan kelib chiqib ortib boraverishi mumkin.

- U shakllarga gorizantal holatda xuddi shu shakllar o'rin almashgan holatda joylashtirilib chiqiladi.

- O'tilayotgan mavzunning savoli yoki jumboqli qisqa jumalari, so'zlari birinchi ustundagi rangli shakllarga yozib chiqiladi.

- O'sha savollarning javobi esa keyingi ustundagi rangli shakllarga yozib chiqiladi.

- O'quvchilar esa navbatma-navbat daskaga chiqib savollar yozilgan rangli shakllarni to'g'ri javob yozilgan rangli shakllarga birlashtirishi lozim bo'ladi.

- O'quvchi savolga to'g'ri javob topgan bo'lsa ikkita rang birlashgan holda yangi rang hosil bo'ladi.

- O'quvchi savolga noto'g'ri javob bergan bo'lsa ranglar birlashmaydi. Ko'rib o'tganimizdek bu metod interfaol o'yin shaklida olib boriladi. Bir qarashda metod soddadek ko'rinadi, lekin guvohi bo'lganimizdek u o'quvchini o'ylashga majbur qiladigan qiziqarli interfaol o'yin hisoblanadi. Interfaol metodlar

- shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", ya'ni

“Inter” – o‘zaro, “akt” – harakat, ta`sir, faollik ma`nolarini beradi. Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklarini ko‘rib chiqsamiz:

- O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi. O‘z vaqtida o‘quvchi –o‘qituvchi –o‘quvchilar orasida talimiy aloqalar o‘rnatiladi.

- O‘qitish usullari talim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh).

- O‘quv jarayoni o‘qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi.

- O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materialini yaxshi esda qoladi.

O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta`lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X. va b. O`qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo`l poligraf servis. 2020.

2. Матчонов С. Адабиёт дарсларида таҳлил ва талқин уйғунлиги. Тил ва адабиёт та`limi. 2020. 7- son.

3. Фуломова Х. Ўқувчиларнинг матн устида ишлаши.// Тил ва адабиёт таълими. 1994. №2-3.

4. <https://giu.uz/tashkilot-haqida/kafedralar/maktabgacha-boshlangich-va-maxsus-talim/>

5. https://ares.uz/storage/app/media/2020yil/Vol_1_Issue_3/354-359.pdf

6. [https://www.google.com/search?lei=PVS-](https://www.google.com/search?lei=PVS-Y7epNJHPrgTIopJY&q=boshlang%27ich%20ta%27lim%20pedagogikasi%20fanining%20mazmuni&ved=2ahUKEwj3u7OH7778AhWRp4sKHUirBAsQsKwBKAN6BAhMEAQ)

[Y7epNJHPrgTIopJY&q=boshlang%27ich%20ta%27lim%20pedagogikasi%20fanining%20mazmuni&ved=2ahUKEwj3u7OH7778AhWRp4sKHUirBAsQsKwBKAN6BAhMEAQ](https://www.google.com/search?lei=PVS-Y7epNJHPrgTIopJY&q=boshlang%27ich%20ta%27lim%20pedagogikasi%20fanining%20mazmuni&ved=2ahUKEwj3u7OH7778AhWRp4sKHUirBAsQsKwBKAN6BAhMEAQ)

7. [https://www.google.com/search?lei=PVS-](https://www.google.com/search?lei=PVS-Y7epNJHPrgTIopJY&q=boshlang%27ich%20ta%27lim%20pedagogikasi%20innovatsiya%20va%20integratsiya%20pdf&ved=2ahUKEwj3u7OH7778AhWRp4sKHUirBAsQsKwBKAV6BAhMEAY)

[Y7epNJHPrgTIopJY&q=boshlang%27ich%20ta%27lim%20pedagogikasi%20innovatsiya%20va%20integratsiya%20pdf&ved=2ahUKEwj3u7OH7778AhWRp4sKHUirBAsQsKwBKAV6BAhMEAY](https://www.google.com/search?lei=PVS-Y7epNJHPrgTIopJY&q=boshlang%27ich%20ta%27lim%20pedagogikasi%20innovatsiya%20va%20integratsiya%20pdf&ved=2ahUKEwj3u7OH7778AhWRp4sKHUirBAsQsKwBKAV6BAhMEAY)